IJTIMOIY TARMOQLARDA ZAMONAVIY YOSHLARNING IJTIMOIY MUNOSABATLARINI SHAKLLANTIRISH

N.S.Sangirova
Jizzax davlat pedagogika universiteti.
Umumiy psixologiya kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi.
e-mail: Quvertiqverti.gmail.com
Sh.A.Xudoynazarov
Guliston davlat pedagogika inistituti
Pedagogika-psixologiya kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
e-mail: sherzodxudoynazarov1994@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi axborot texnologiyalari va internetning shiddat bilan rivojlanishi virtual reallikni shakllanishiga olib keldi, hamda bu reallikning bolalar dunyoqarashiga, ta’lim-tarbiyasiga ta’siri ham ijobiy, ham salbiy jihatdan o‘zini namoyon qilmoqda. Shu boisdan ham biz ushbu maqolada bolalar ta’lim-tarbiyasida virtual olam hamda virtual reallikning salbiy va ijobiy ta’siri masalasiga ijtimoiy-psixologik jihatdan yoritishga urinib ko‘ramiz.

Kalit so‘zlar: axborot, internet, kompyuter, virtual olam, virtual reallik, virtual o‘yin, ta’lim, tarbiya, bilim, dunyoqarash, ijtimoiy fanlar, jamiyat, hayot, ota-ona.

Abstract: the current rapid development of Information Technology and the internet has led to the formation of virtual reality, and the impact of this reality on the Worldview, Education of children manifests itself both positively and negatively. Therefore, in this article we will try to shed socio-psychological light on the issue of the negative and positive impact of the virtual world and virtual reality in children's education.

Keywords: information, internet, computer, virtual world, virtual Reality, virtual Game, education, upbringing, knowledge, worldview, Social Sciences, Society, Life, parent.

Bugungi kunda kompyuter texnologiyasi va boshqa sun’iy texnik qurilmalar hamda internet orqali turli virtual jarayonlar va ob’ektlarni yaratish va ular bilan ishlash bolalar faoliyatiga yangi mazmun beradi, hayot tarzini o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan xilma-xil ehtiyojlarni hosil qiladi, ularni qondiradi. Ammo kompyuter va internetdagi virtual olam bolalarga ijobiy imkoniyatlar berish bilan birga o‘zining salbiy oqibatlarini ham ko‘rsatmoqda.Ayniqsa, pedagog, psixolog va sotsiologlar bolalarni internetdagi onlayn o‘yinlariga butunlay bog‘lanib qolishlaridan, soatlab, kunlab virtual dunyoda qolib ketishayotganidan tashvishga tushmoqdalar. Internet bilan do‘st tutingan bolalarda o‘z-o‘zidan atrofidagi kishilar bilan muloqot qilishga bo‘lgan ehtiyoj kamayadi, ruhiyatida o‘zgarish sodir bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Virtuallik tushunchasi lotinchadan olingan bo‘lib, “virtus” – “faraziy”, “xayoliy” degan ma’nolarni anglatadi. G‘arbiy Rim madaniyatida “virtus” so‘zi to‘rt ma’noda tushunishgan: birinchidan, bu axloqiy qadriyat, yaxshilik, (masalan, ingliz tilida “virtus”-yaxshi fazilat degani); ikkinchidan, bu qandaydir aktual, mavjud, hamda ta’sir etuvchi reallik; uchinchidan qandaydir artefakt; to‘rtinchidan, virtuallik ko‘proqxayoliy, faraziy, potensiallik, noreallik kabilarga sinonim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kaykovus Unsurulmaoni - 63 yoshida o‘g‘liga atab “QOBUSNOMA” yozib, unda o‘zining bola tarbiyasi, oilaviy hayot, shaxs kamoloti masalalarini bayon etdi. Kitobdagi asosiy g‘oya - yoshlarni ota-onani hurmat qilishga, e’zozlashga chaqirishdir Bahovuddin Naqshbandi, Ahmad Yassaviy, At-Termiziy, Al-Buxoriy, Bobarahim Mashrab, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nosir Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Burhoniddin Marg‘iloniy, Mahmud Qoshg‘ariy, Ahmad Donish, Yusuf Xos Hojib, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat kabi buyiklar yoshlarning ma’naviy qiyofasini shakillantirishda ta’limning xususiyatlari muhumligini takitlagan.

Bugungi kunda internetga qaramlik virtual reallikni hosil qilish monitor, multimediya, modem va boshqa kompyuter texnologiyasi orqali amalga oshiriladi. Bu virtual reallikning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u inson tamonidan yaratilgan sun’iy makon va muhitdir, turli modellar va

obrazlar fazosidir. Internetdagi virtual reallik muhitida ishlash yengil tarzda sodir bo‘lib, o‘yinga o‘xshab ketadi, kompyuter va undan foydalanuvchining bir butunligi his etiladi. Natijada virtual ob’ektlarning ta’siri bolalar tomonidan xuddi “odatdagi” reallik kabi qabul qilinadi. Aynan virtual reallikning mana shunday interaktiv imkoniyatlari o‘quvchi-bolalar uchun o‘ta darajada ahamiyatli bo‘lib borishiga olib kelmoqda. Internet tizimdan foydalanish bir qator ijtimoiy-ma’naviy xarakterdagi muammolarni keltirib chiqardi.

Individni internetga mukkasidan ketishning dastlabki belgilari quyidagilar:

• uzoq vaqt tarmoq ichida bo‘lish;

• internetdan hech qanday maqsadsiz foydalanish;

• virtual olam tufayli boshqa qiziqishlardan voz kechish;

• internetdan foydalana olmaganda kayfiyatning tushishi, jahldorlik kabi holatlarning kuzatilishida ko‘rishimiz mumkin. Internet orqali suhbatlasharkansiz, muloqot shunchaki bir o‘yin ko‘rinishida o‘ladi. Internet bilan do‘st tutingan bolalarda o‘z-o‘zidan atrofidagi kishilar bilan muloqot qilishga bo‘lgan ehtiyoj kamayadi, ruhiyatida o‘zgarish sodir bo‘ladi. U o‘zini kuchli va go‘zal, hamma narsaga qodirdek his qiladi. Virtual olam devorlari ortida hech kim uni nojuya ishlari uchun urishmaydi, buzilgan jo‘mrakni tuzatishga majbur qilmaydi. Internet go‘yoki uni tashqi dunyodan himoya etuvchi qobiq vazifasini bajaradi

Masalaning yana bir jihati bor. Ma’lumki, bolalarda ota-onasiga taqlid qilish yoki birdan katta bo‘lib qolish istagi kuchli. Kompyuterdagi virtual olam bolalarga ana shu imkoniyatni, virtual tarzda bo‘lsa ham, hadya qiladi. Hozir urfga kirayotgan, virtual reallikning bir ko‘rinishi bo‘lgan onlayn o‘yinlar ma’naviy-ruhiy tahdid darajasini yanada oshiradi. Bunda bolalar internet tizimiga kirib, virtual olamda o‘zaro jang qilishadi, otishmalarda qatnashadi.

Hozirda bunday muammolarni oldini olish va hal qilish bo‘yicha bir qancha e’tiborga loyiq tavsiyalari berilmoqda:

- ota-onalar farzandlarini internet saytlarda qidiruvni amalga oshirayotganda, axborotni qabul qilishda yoki elektron pochta manzilidan foydalanayotganda ularni ma’lum darajada nazorat qilib borish;

- internetdan foydalanish qoidalari bo‘yicha tushunchalarni murabbiylik soatlarida, ijtimoiy gumanitar fanlar mavzularida kengroq yoritib borish;

- “Internetdan foydalanishning salbiy oqibatlari”, “Internetdagi firibgarliklar” mavzularida insholar tanlovi, plakatlar tanlovini o‘tkazish;

-hozirgi kompyuter va internet mutaxassislarining vazifasi oilada internetdan foydalanish madaniyatini joriy etadigan, hamda bolalarga psixologik, ma’naviy va jismoniy zarar yetkazmaydigan ochiq va xavfsiz axborot makonini yaratish;

- ta’lim tizimida ijtimoiy fanlarni chuqur o‘rgatish orqali bolalarning g‘oyaviy hamda internetdan unumli foydalanish malakasini oshirish;

Jamiyatda, fanda, ta’lim tizimida, o‘quvchi va o‘qituvchining ijtimoiy roli va salohiyatida ham katta o‘zgarishlar, tub yangilanish sodir bo‘lmoqda. Bu esa ijtimoiy fanlarni o‘qitish jarayoniga, mazmuni va strukturasiga katta ta’sir ko‘rsatadi

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy texnologiyalarning tez sur’atlarda o‘sishiga qaramay, ba’zan odamlar ulardan oqilona foydalanish qanday kechishi kerakligini to‘liq anglab yetmaydi. Kompyuter va internetgacha bo‘lgan davrda o‘sib-ulg‘aygan ko‘plab ota-onalar va muallimlarning katta qismi, agar bola internetdan foydalana boshlasa, buning, albatta, foydasidan zarari ko‘proq deb o‘ylaydi. Bolani kompyuter yoki internetdan chalg‘itish harakati zamirida, aslida, boshqa bir muammo, ya’ni kattalarning bu masalada nisbatan savodsiz ekani aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishonova Z.T., Alimova G.K. “Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi”. -T.: TDPU 2017 – 264 b.

2. G‘oziye E. “Ontogenez psixologiyasi Nazariy- eksperimental tahlil” -T.: Noshir 2010. – 356 b.

3. Do‘stmuhamedova Sh.A., Nishonova Z.T.va boshqalar “Yosh davrlari va pedagogik psixologiya” -T.: Fan va texnologiyalar 2013 – 343 b.

4. Usmonova, M. (2023). “OILAVIY NIZOLARDA FARZAND VA OTA-ONA MUNOSABATLARI”. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (I).
5. “Axborot asrida ta’lim-tarbiya” . Toshkent: Akademnashr, 2012. – 176 b.
6. Ergasheva M. ”Ta’limning tizimli tahlili” Общestvo i innovatsii. – T. 2021.